

Malaka oshirish talabi

Barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-moliyaviy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarning o'ziga xos nazariy va amaliy asoslari bor. Uni bilish va ko'nikma hosil qilish zarur. Shundagina o'z sohasiga doir yangiliklar bilan tanishadi, bilimlarini oshiradi, mustahkamlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3003-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2018 yil 1 avgustdagi "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash to'g'risidagi" 74-sonli buyrug'i ijrosini taminlash maqsadida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida 2018 yil oktyabr - noyabr oylarida Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi "Suv qurilish invest" davlat unitar korxonalarini direktorlari, "Meliorativ ekspeditsiya", "Nasos stansiyalari boshliqlari", "Suv omborlari boshliqlari" va tuman Irrigatsiya bo'limi boshliqlari uchun 10 kunlik malaka oshirish kursi tashkil qilinmoqda. Malaka oshirish jarayoniga ishlab chiqarish korxonalaridan ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan yetakchi mutaxassislarning jalb etilishi o'quv jarayonini sifatli tashkil etilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.



PKQT va UMO tarmoq markazi bo'limi boshlig'i Javlonbek Qutlimurotov axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov